

## O'zbekiston iqtisodiyotining kompleks diagnostik tadqiqoti doirasida onlayn-konsultatsiyalar



### Mamlakat iqtisodiyotining kompleks diagnostik tadqiqoti nima?

Iqtisodiyotning kompleks diagnostik tadqiqoti (KDT) - bu Jahon banki o'z mijozlari uchun o'rtacha har besh yilda tayyorlaydigan dasturiy hujjat. Bunda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy muammolari va qashshoqlikka barham berish hamda mahalliy aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari belgilanadi.

KDT mijoz-mamlakatlar rivojlanishining turli jihatlarini, shu jumladan Jahon banki mahalliy hukumatlarga tegishli moliyaviy va maslahat yordamlarini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni tahlil qiladi.

Ushbu hujjat barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan fuqarolar, hukumatlar, xususiy sektor, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ommaviy axborot vositalari va boshqa xalqaro rivojlanish masalalari bo'yicha hamkorlarning manfaatlarini hisobga olgan holda tayyorlanadi. KDT doirasidagi konsultatsiyalar muhim ahamiyatga ega, chunki ular KDT natijalari yuqoridagi guruhlarining har biri uchun aktual ekanligiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Yaqinda bo'lib o'tadigan O'zbekiston KDTsi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining to'rtta istiqbolli yo'nalishini tahlil qiladi, jumladan:

- dinamik va inklyuziv xususiy sektorni rivojlantirish
- samarali va jamoatchilik oldida hisobdor davlat institutlarini yaratish
- odamlarga va inson kapitaliga investitsiya qilish
- uchun yanada barqaror va ekologik toza iqtisodiy o'sish modeliga o'tish

KDT Jahon banki uchun mijoz-davlatlar bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash jarayonida asosiy vosita hisoblanadi. Shunday qilib, O'zbekiston KDTsi xulosalari kelgusida 2022-2026 yillarda mamlakat bilan Hamkorlik dasturi doirasida Bank hukumatga taqdim etadigan moliyaviy va maslahat ko'magi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## **QO'SHIMCHA MATERIALLAR**

- [O'zbekiston iqtisodiyotining kompleks diagnostik tadqiqoti: dastlabki xulosalar](#)
- Video: [Jahon banki O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlaydi](#)
- Vebsayt: [Jahon banki O'zbekistonda](#)

## **Bizga sizning fikringizni o'rganish muhim**

Aktual va natijaga yo'naltirilgan O'zbekiston KDTsini tayyorlashda bizga yordam bering! Biz barcha manfaatdor tomonlarning, ham mahalliy, ham xalqaro tashkilotlarning mulohazalarini tinglaymiz va quyidagi savollarga javoblaringizdan juda minnatdor bo'lamiz

- O'zbekistondagi qaysi islohotlar kelgusi besh yil ichida eng ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak?
- Ular yuqorida aytib o'tilgan rivojlanishning to'rtta istiqbolli yo'nalishlariga mos keladimi?
- Ushbu yo'nalishlardagi maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy muammolar qaysi?
- Sizningcha, kelgusi besh yil davomida mamlakat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari nuqtai nazaridan muhim bo'lmagan biron bir yo'nalish yoki mavzu bormi?

KDT doirasidagi onlayn-konsultatsiyalar **2021 yil 26 apreldan 10 maygacha** bo'lib o'tadi. Sizdan yuqoridagi savollarga javoblarni, sharh yoki takliflarni o'zbek, rus yoki ingliz tillarida KDTni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan guruhga [tashkent@worldbank.org](mailto:tashkent@worldbank.org) elektron manzili orqali yuborishingizni so'raymiz. Xabar mavzusida "*O'zbekiston KDT doirasidagi onlayn-konsultatsiyalar*" ko'rsatilishi kerak.

Siz bir necha daqiqa vaqtni oladigan onlayn-so'rovnomamizda ham ishtirok etishingiz mumkin. Javoblaringiz tahlil qilinib, amaldagi onlayn-konsultatsiyada umumlashtiriladi.

### **ONLAYN-SO'ROVNOMA**

Onlayn-konsultatsiyalar bilan bog'liq texnik savollarni Yuriy Saruxanyanga [ysarukhanyan@worldbank.org](mailto:ysarukhanyan@worldbank.org) elektron pochta orqali yuborishingiz mumkin.